

Хуршид Даврон

Khurshid Davron


- [SAYT XARITASI](#)
- [ENGLISH](#)
- [HA РУССКОМ](#)

[Bosh sahifa](#) > [Maqola, esse, suhbat](#) > [O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati](#) > Xurshid Davron. Adabiyot — oinayi millatdur.

01, 11, 2012 [Q](#)

Xurshid Davron. Adabiyot — oinayi millatdur.

96 tashrif



Хабарингиз бор, «Тафаккур» журналида «Жавондаги жавохир» рукни остида ўзбек адибларининг мутолаа қилаётган китоблари хусусидаги мулоҳазалари мунтазам бериб борилади. Журналнинг куни-кеча босмадан чиққан янги сонидан (2012 йил, 4) камина,яъни Хуршид Даврон мутолаа қилаётган китоблари,уларнинг муаллифлари ва таржимонлари ҳақидаги ўй-фикрлари «Мувозанат йўли» сарлавҳаси билан ўрин олган. Мен уларни журналда босилган тартибда бирин-кетин сизга тақдим этиб бораман. Биринчи таассуротлар атоқли ўзбек олими Бегали Қосимовнинг 2002 йилда нашр этилган «Миллий уйғониш» (Тошкент, “Маънавият”) китоби ҳақида.



Хуршид Даврон
АДАБИЁТ – ОИНАЙИ МИЛЛАТДУР

“Миллий уйғониш” китоби том маънода Бегали Қосимов илмий-ижодий фаолиятининг энг юксак чўққиси сифатида баҳоланиши керак. Менинг назаримда, бу китоб фақат олис ўтмиш ҳодисоти ҳақида эмас, бугунги кунда ҳам ўзбек зиёлисини кийнаётган саволларга жавоб топишга ёрдам ва йўлланма берадиган, маърифатпарвар боболаримиз тажрибаларидан, уларнинг хато ва адашувларидан огоҳлантирадиган, ютуқ ва камчиликларидан хулоса чиқарадиган дастуриламалдир. Бугунги янги жамият, янги маданият ва янги адабиёт қандай тамойиллар заминида шаклланиши лозим? Бугун ўзбек кишиси, аввалан, зиёлиси қайси йўлни танламоғи, нимани химоя этмоғи, нимага қарши курашмоғи, халқни, унинг илғор қисмини қандай ишларга даъват қилмоғи керак?

Китобда жадидлар тафаккурини банд этган ва айни шу кунларда ўзбек зиёлисини ҳам ўйлантираётган масалаларга – мана бу сатрларга диққатингизни тортаман: “Ҳамонки мақсад жамиятни янгиламоқ экан, уни янги авлодгина қилиши мумкин эди. Янги авлодни эса етиштирмоқ лозим. Эски, анъанавий усулда бу ишни амалга ошириш қийин, чунки замон ўзгарган... Сўнги уч-тўрт аср... Оврупони олдинга олиб чиқди. Унинг қўлини сарбаланд қилди. Энди Оврупо илм-фанини эгалламасдан дунё билан баробар яшаб бўлмайди... Айни пайтда ўзликни ҳам сақламоқ лозим. Дин-диёнат ҳам зарур. Хуллас, яшамоқ учун учала жихатни ҳам ушламоқ керак бўлади. Ушлаганда ҳам ҳеч бирини суиистеъмол қилмасдан. Акс ҳолда мувозанат бузилади. Мувозанат бузилиши эса ёмон оқибатларга олиб келади. Масалан, ёлғиз дин ушланса, дунё қўлдан кетади. Фақат ўзлик, миллат десак, яна дунёдан ажраб қоламиз. Бировнинг биз билан иши бўлмайди. Овруполашсак, ўзлик йўқолади. Бу ҳам фожиа. Мувозанат керак...”

Бир замонлар жадидлар фикри-зикрини банд этган муаммолар бугун бизни ҳам ўйга кўмган. Бу муаммоларнинг моҳияти муайян даражада ўзгарган, дунёдаги мувозанатни бузишга қаратилган янги хавф-хатарлар, тажовузкор кучлар пайдо бўлган. Агар жадидлар Оврупо тимсолида тараққиётга бошловчи илм-фанни кўрган бўлса, бугун биз ҳамма нарсани манфаат нуқтаи назаридан ҳал қилишга уринаётган Ғарб диктатурасига гувоҳ бўлиб турибмиз. Бу зўравон кучлар кўпинча демократияни никоб қилиб, тараққиёт йўлидан боришга интилаётган, янги жамият пойдеворини кураётган давлатларни фақатгина ўз манфаатига хизмат қилдиришга уринаётган даврда яшайпмиз.

“Миллий уйғониш” китобининг ҳар бир саҳифаси бизга давлат сарҳадларини қуролли чегарачилар қўриқлаганидек, миллат онги, сезими ва турмушининг химояси маданият, адабиёт ва санъат аҳли томонидан ҳифз этилмоғи лозимлигини уқтиради. Қарийб юз йилдан зиёд вақт ўтган бўлса-да, бу маърифатпарвар инсонлар “руҳсиз тандур, ханжар урса, қони сачрамас” юрт ва “оқибатсиз”, “ҳамиятсиз”, “ғайратсиз” миллат дардида юрак қони билан ёзган битиклар ҳамон замонамизга ҳамоҳанг янграйди. Баъзан таассуф ила ўйлайсан киши: турмушнинг маърифатсиз ва тубан иллатларига қарши улар (китобсиз ҳонадонлар, исрофли дабдабали тўйлару бошқа кераксиз, сохта диний маросимлар ва ҳоказо ҳақида) ёзган қуюнчак мақолалар ҳавога учиб кетмадими? Нега бу муаммолар ҳали-ҳануз оёғимизга тушов бўлиб қолмоқда? Нега миллий онг, сезим ва турмушнинг химоячиси бўлмиш зиёлиллар матонатсиз, нега уларнинг жамиятдаги ўрни йўқ ҳисоби? Ўйлайман-у, бу саволларга жавоб ҳам айнан шу китобда борлигини яхши биламан. Сизиф тақдирига маҳқумлик нечоғлиқ аянчли бўлмасин, маърифатчи боболаримиз йўлидан юришда давом этиш лозимлигини англайман. Зеро, Ватанни севиш, унинг орзу-армонлари, қувонч-ташвишлари билан яшаш, миллат турмушидаги иллат ва камчиликларга муросасиз бўлиш Сизиф меҳнатини эслатса-да, у боболаримиз буқилмас матонати туфайли эришган шараф ҳамдир.

Жадидчилар учун адабиёт оинайи миллатдур, у фақат юрак замзамаси эмас, тафаккур жилоси бўлмоғи лозим, у фақат хисларга эмас, онг ва сезим тараққиётига таъсир ўтказмоғи даркор. Бунинг учун адабиёт ва ижод аҳли халқ дарди билан, унинг орзу-армони билан яшамоғи керак.

Маърифатчи боболаримизнинг бу ўғитлари бугун ҳам долзарб. Мустақилликдан кейин адабиётимизда бошланган янгилиниш жараёни фақат замонга ҳамоҳанггина эмас, элу юрт тақдирига ҳамнафас бўлсин. Айрим китобларда намоён бўлаётганидек – Ғарбнинг машҳур асарлари, адабий тажрибаларини кўр-кўрона, рангсиз ва жонсиз тақрор этиш йўлидан эмас, боболаримиз айтганидек, мувозанат йўлидан, ўрганишга арзийдиган тажрибаларни рад этмаган ҳолда, жони ва руҳи миллий заминдан узилмаган йўлдан бориш керак.

Китобни ёпар эканман, устоз Бегали Қосимовнинг тадқиқотчилик меҳнати ва олимлик матонати олдида бош эгаман.



Xabaringiz bor, «Tafakkur» jurnalida «Muvozanat yoʻli» rukni ostida oʻzbek adiblarining mutolaa qilayotgan kitoblari xususidagi mulohazalari muntazam berib boriladi. Jurnalning kuni-kecha bosmadan chiqqan yangi sonidan (2012 yil, 4) kamina,yaʼni Xurshid Davron mutolaa qilayotgan kitoblari,ularning mualliflari va tarjimonlari haqidagi oʻy-fikrlari oʻrin olgan. Men ularni jurnalda bosilgan tartibda birin-ketin sizga taqdim etib boraman.

Birinchi taassurotlar atoqli oʻzbek olimi Begali Qosimovning 2002 yilda nashr etilgan «Milliy uygʻonish» (Toshkent, “Maʼnaviyat”) kitobi haqida.



Xurshid Davron

ADABIYOT — OINAYI MILLATDUR

“Milliy uygʻonish” kitobi tom maʼnoda Begali Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining eng yuksak choʻqqisi sifatida baholanishi kerak. Mening nazarimda, bu kitob faqat olis oʻtmish hodisoti haqida emas, bugungi kunda ham oʻzbek ziyolisini qiynayotgan savollarga javob topishga yordam va yoʻllanma beradigan, maʼrifatparvar bobolarimiz tajribalaridan, ularning xato va adashuvlaridan ogohlantiradigan, yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqaradigan dasturilamadir. Bugungi yangi jamiyat, yangi madaniyat va yangi adabiyot qanday tamoyillar zaminida shakllanishi lozim? Bugun oʻzbek kishisi, avvalan, ziyolisi qaysi yoʻlni tanlamogʻi, nimani himoya etmogʻi, nimaga qarshi kurashmogʻi, xalqni, uning ilgʻor qismini qanday ishlarga daʼvat qilmogʻi kerak?

Kitobda jadidlar tafakkurini band etgan va ayni shu kunlarda oʻzbek ziyolisini ham oʻylantirayotgan masalalarga – mana bu satrlarga diqqatingizni tortaman: “Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirmoq lozim. Eski, anʼanaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon oʻzgargan... Soʻnggi uch-toʻrt asr... Ovruponi oldinga olib chiqdi. Uning qoʻlini sarbaland qildi.

Endi Ovrupo ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab boʻlmaydi... Ayni paytda oʻzlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak boʻladi. Ushlaganda ham hech birini suiisteʼmol qilmasdan. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolgʻiz din ushlansa, dunyo qoʻldan ketadi. Faqat oʻzlik, millat desak, yana dunyodan ajrab qolamiz. Birovning biz bilan ishi boʻlmaydi. Ovrupolashsak, oʻzlik yoʻqoladi. Bu ham fojia. Muvozanat kerak...”

Bir zamonlar jadidlar fikri-zikrini band etgan muammolar bugun bizni ham oʻyga koʻmgan. Bu muammolarning mohiyati muayyan darajada oʻzgargan, dunyodagi muvozanatni buzishga qaratilgan yangi xavf-xatarlar, tajovuzkor kuchlar paydo boʻlgan. Agar jadidlar Ovrupo timsolida taraqqiyotga boshlovchi ilm-fanni koʻrgan boʻlsa, bugun biz hamma narsani manfaat nuqtai nazaridan hal qilishga urinayotgan Gʻarb diktaturasiga guvoh boʻlib turibmiz. Bu zoʻravon kuchlar koʻpincha demokratiyani niqob qilib, taraqqiyot yoʻlidan borishga intilayotgan, yangi jamiyat poydevorini qurayotgan davlatlarni faqatgina oʻz manfaatiga xizmat qildirishga urinayotgan davrda yashayapmiz.

“Milliy uygʻonish” kitobining har bir sahifasi bizga davlat sarhadlarini qurolli chegarachilar qoʻriqlaganidek, millat ongi, sezimi va turmushining himoyasi madaniyat, adabiyot va sanʼat ahli tomonidan himo etilmogʻi lozimligini uqtiradi. Qariyb yuz yildan ziyod vaqt oʻtgan boʻlsa-da, bu maʼrifatparvar insonlar “ruhsiz tandur, xanjar ura, qoni sachramas” yurt va “oqibatsiz”, “hamiyatsiz”, “gʻayratsiz” millat dardida yurak qoni bilan yozgan bitiklar hamon zamonamizga hamohang yangraydi. Baʼzan taassuf ila oʻylaysan kishi: turmushning maʼrifatsiz va tuban illatlariga qarshi ular (kitobsiz xonadonlar, isroflil dabdabali toʻylaru boshqa keraksiz, soxta diniy marosimlar va hokazo haqida) yozgan kuyunchak maqolalar havoga uchib ketmadimi? Nega bu muammolar hali-hanuz oyogʻimizga tushov boʻlib qolmoqda? Nega milliy ong, sezim va turmushning himoyachisi boʻlmish ziyolilar matonatsiz, nega ularning jamiyatdagi oʻrni yoʻq hisobi? Oʻylayman-u, bu savollarga javob ham aynan shu kitobda borligini yaxshi bilaman.

Sizif taqdiriga mahkumlik nechogʻliq ayanchli boʻlmasin, maʼrifatchi bobolarimiz yoʻlidan yurishda davom etish lozimligini anglayman. Zero, Vatanni sevish, uning orzu-armonlari, quvonch-tashvishlari bilan yashash, millat turmushidagi illat va kamchiliklarga murosasiz boʻlish Sizif mehnatini eslatsa-da, u bobolarimiz bukimas matonati tufayli erishgan sharaf hamdir.

Jadidchilar uchun adabiyot oinayi millatdur, u faqat yurak zamzamasini emas, tafakkur jilosi boʻlmogʻi lozim, u faqat hislarga emas, ong va sezim taraqqiyotiga taʼsir oʻtkazmogʻi darkor. Buning uchun adabiyot va ijod ahli xalq dardi bilan, uning orzu-armoni bilan yashamogʻi kerak. Maʼrifatchi bobolarimizning bu oʻgʻitlari bugun ham dolzarb. Mustaqillikdan keyin adabiyotimizda boshlangan yangilanish jarayoni faqat zamonga hamohanggina emas, elu yurt taqdiriga hamnafas boʻlsin. Ayrim kitoblarda namoyon boʻlayotganidek – Gʻarbnining mashhur asarlari, adabiy tajribalarini koʻr-koʻrona, rangsiz va jonsiz takror etish yoʻlidan emas, bobolarimiz aytganidek, muvozanat yoʻlidan, oʻrganishga arziydigan tajribalarni rad etmagan holda, joni va ruhi milliy zamindan uzilmagan yoʻldan borish kerak. Kitobni yopar ekanman, ustoz Begali Qosimovning tadqiqotchilik mehnati va olimlik matonati oldida bosh egaman.

BEGALI QOSIMOV HAQIDA MAʼLUMOT

Begali Qosimov (1942—2004) Adabiyotshunos Begali Qosimov 1942 yil 19 dekabrda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani Devov qishlogʻida tugʻilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati Oʻzbekiston Milliy universiteti oʻzbek filologiyasi fakulteti bilan bogʻliq: 1958—1963 yillarda talaba, 1963—1968 yillarda aspirant, 1966 yildan oʻqituvchi, dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida ishlab kelmoqda.

1968 yili «Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikriy) va uning adabiy muhiti» mavzuidagi nomzodlik, 1984 yili «XX asr boshi oʻzbek poeziyasi (inqilobiy sheʼriyatning shakllanishi va taraqqiyoti) masalalari. 1905—1917» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

B. Qosimov oʻzbek mumtoz va yangi adabiyoti muammolari boʻyicha tadqiqotlar yaratgan. Lekin ijodining mohiyatini milliy uygʻonish, maʼrifatchilik adabiyoti muammolari, siymolari ijodi, taqdiri masalalari qiziqtiradi. Bu hol uning ilmiy asarlarida yaqqol koʻrinadi.

U turkiy olamdagi uygʻonish, adabiy aloqalararo bogʻliqlik masalalarini mufassal oʻrgandi va oʻrganmoqda. Turkiya Otaturk kultur markazi faxriy aʼzosi, Turkiya Otaturk Arashtirma markazi muxbir aʼzosi (1998). Anqarada nashr etilayotgan 33 jildlik «Turk dunyosi adabiyoti» nashrining oʻzbek adabiyoti boʻyicha mutasaddisi.

B. Qosimov Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi (1999), oʻndan ortiq darslik va qoʻllanmalar, 10 nomda alohida asarlar, 200 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. Oʻzbekiston Milliy universiteti Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti kafedrasini asoschisi (1993), mudiri. Kafedraning keng xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalari mavjud. Olimning asarlari rus, turk, fransuz va tatar tillariga tarjima qilingan.

Asarlari

Mirmuhsin Shermuhamedov. T.: «Bilim» jamiyati, 1967.

- Abdulla Avloniy. T.: O'qituvchi, 1979.
 Izlay-izlay topganim. T.: Adabiyot va san'at, 1983.
 Salom, kelajak. T.: Adabiyot va san'at, 1986.
 Ma'rifat darg'alari. T.: O'qituvchi, 1990.
 Revolyusiya i literature. T.: Fan, 1991.
 Ismoilbek Gaspirali. T.: Adabiyot va san'at, 1992.
 Maslakdoshlar (Behbudiy, Ajziy, Fitrat). T.: Sharq, 1994.
 Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T.: Ma'naviyat, 2002.

Matnshunoslik ishlari

- Navoiyning nigohi tushgan... (Navoiy antologiyasi). T.: Adabiyot va san'at, 1987.
 Tavallo. Ravnaqul islom. T.: Fan, 1993.
 Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997(1-nashr), 1999 (2-nashr).
 Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. I—II jildlar. T.: Ma'naviyat, 1998.
 Sidqiy-Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1998.
 Ibrat, Ajziy, So'fizoda. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1999.
 Yusuf Saryomiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 2002.

Adabiyotlar

- Begali Qosimov. Bibliografik ko'rsatkich. T.: Universitet, 2002.
 Oripov A., Sharafiddinov O. Izlagan olim bo'ladi. //Vatan, 1992 yil 13-son.
 Sevgi Ahmat. Toshkent davlat universiteti ozbek tili va adabiyati ogretim uyesi prof. Dr. Begali Kasimov ile bir chay sohbeti. //Cagri kultur sanat bilim dergisi 1998 ocak, 42-y, 458-son. 9-11 B. Turkiya.
 Minnegulov X. Stranitsa bratstva. //Vechernyaya Kazan, 1986 yil 7 yanvar.
 Zaynullin Jamil. Boringi duslik ezlarennan. //Kazan o'tlari, 1989, 11-son.
 Nagaev S. Nesillerning devamiyligi uzyulmeyjek. //Yangi dunyo (Qrim), 1993, 12 mart.
 Yo'ldoshev Q. Olimning olami. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2002 yil 23 avgust.

ILOVA

BEGALI QASIMOV

Doç. Dr. Fatma AÇIK

Çarlık Rusyası zamanında başlayan Türklük bilimi çalışmalarına 1917 Ekim İhtilali'ni takiben daha fazla yerli bilim adamının katılmasını sağlamak amacıyla Azerbaycan Devlet Üniversitesi Doğu Fakültesi, Tatar Dili ve Kültürü Bölümü'nün de içinde yer aldığı Kazan Doğu Eğitim Enstitüsü, Kırım Devlet Üniversitesi, Türkistan Devlet Üniversitesi ve benzeri eğitim kurumları açılmasına yol açmıştır.

Bu bağlamda 12 Mayıs 1918 yılında Taşkent'te ilk defa Milli Üniversite "Türkistan Halk Darülfünunu" kurulmuştur. Bu üniversitenin Edebiyat ve Felsefe Fakültesi bünyesinde Klasik Özbek Edebiyatı Bölümü kurulmuştur. Bunu 1921-1942 yıllarında Şarkiyat Fakültesi, 1942-1956 arasında Tarih ve Filoloji Fakültesi, 1956-1981 arası Filoloji Fakültesi'nin açılması takip etmiştir. Türk yazılı eserleri grameri ve filoloji üzerine genel anlamıyla Sovyetler döneminde başlayan araştırmalar bu coğrafyada öncelikli olarak Rusların yeni milletler ve diller yaratma sürecine katkı sağlamak amacıyla taşınmıştır. Bu nedenle Milli Üniversite'de 1944 yılında açılan Özbek Dili Bölümü'nde çalışan A.Kononov, A.Yudaxin, A.Borovkov, A. G'ulomov, H.Yunusov, F.Kamol, Sh. Rahmatullaev, Doç. M.Qodirov, Doç. H. Qahhorova, Dr. A.Jo`rayev gibi bilim adamları dil ve alfabe üzerine araştırmalara yoğunlaşmışlardır.

1935 yılında Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Üniversitesi O'zbek Tili va Adabiyoti Fakulteti terkinde kurulan O'zbek Tilshinosligi Bölümü 1960'a kadar Yeni Özbek dili, eski Özbek dili, ağızlar, gramer, tarihi Türk şiveleri, Özbek dilinin öğretimi gibi konular üzerine yoğunlaşan bölümde Kazak Türkçesinin öğretimi ve araştırmaları da yapılmıştır. 1960'tan sonra yabancılara özellikle Ruslara Özbek dilini öğretilmesi üzerinde durulmuştur.

1982 yılında Taşkent Devlet Üniversitesi'nde Prof. Dr. İristoy Qo'chqortoyev başkanlığında Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü açılmıştır (2002 yılında bölümün adı Türkoloji şeklinde değiştirilmiştir. 2005 yılından itibaren Türkoloji ve Özbek Dili bölümleri birleştirilmiş ve "Turkologiya va Fakultetlararo O'zbek Tili" adını almıştır). 1993 yılında Özbek Filoloji Fakültesi bünyesinde Milli Uyanış Devri Özbek Edebiyatı Bölümü kurulmuş ve bölüm başkanlığına Prof. Dr. Begali Qosimov getirilmiş ve vefatına kadar da Hoca bu görevi yürütmüştür.

Özbek edebiyatı ve kültürüne dolayısıyla Türk edebiyatı ve kültürüne emek verenler arasında adı unutulmayacak bilim adamlarından biri olan Begali Qosimov hür ve müstakil olma mutluluğundan uzun yıllar mahrum kalmış bir memleketin insanı olarak 19 Aralık 1942 yılında Qashkadaryo vilayatinin Kasbi ilçesi Denov Köyünde doğmuştur. İlk ve orta öğrenimini Denov'da tamamlayan Qosimov, 1958-1963 yılları arasında TOSHDU (Taşkent Devlet Üniversitesi), Filoloji Fakültesi'nde okudu. Mezuniyet sonrasında aynı üniversitede yüksek lisans yaptı. "Mirmuhsin Shermuhammedov va Uning Adabiy Muhiiti" adlı tezinin ardından (1968) bu üniversitede hoca olarak dersler vermeye başladı. 1984 yılında "XX. Asr Boshi O'zbek Poeziyasi (1905-1907 İnkilobiy She'riyatning Shakillanishi va Taraqqiyoti)

Masalalari” isimli doktora tezini tamamladı. 1987 yılında profesör oldu.

Hamasetten uzak, yüzeysel değerlendirmelere yer vermeyen çalışma tarzıyla dikkat çeken Begali Bey, sistem izin vermediği için 1990’a kadar Avrupa, ABD, Türkiye gibi ülkelerde yayımlanmış yayımlardan habersiz olmasına ve kütüphanelerde bazı yayınları görme yasağına rağmen ömrünü Özbek edebiyatının önde gelen vatanperver simalarını ve onların eserlerini araştırmaya adanmış bir Türklük bilimcisidir.

Türk edebiyatıyla ilgilenenler, Qosimov’un ne denli ilmi ve ciddi eserler ortaya koyduğunu yakından bilir. Milli Uyanış Devri Özbek Edebiyatı’nı öğrenmek yolunda olağanüstü çaba sarf ettiğini, her türlü zorluğa rağmen çalışmalarını bir an olsun durdurmamayan edebiyatçılardan biri olarak şu kitaplara imza atmıştır:

1. Mirmuhsin Shermuhamedov. Taşkent. Bilim jamiyati, 1967.
2. Siddiqiy-Azhziy. Tanlangan Asarlar (nashr va tadqiq). Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1973.
3. Inqilobiy She’riyat Sahifalari. Taşkent. Adabiyot va san’at, 1977.
4. Abdulla Avloniy. Taşkent. O’qituvchi, 1979.
5. Abdulla Avloniy. Toshkent Tongi (nashr va tadqiq). Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1979.
6. Izlay-İzlay Topganim... Taşkent. G. Gulom Nashriyoti, 1983.
7. Sidqiy-Hondayliqiy. Navbahor (nashr va tadqiq). Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1984.
8. Botu. Jelanie Jelaniy. Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1985.
9. Isyonkor Qalb. Taşkent. O’zbekiston Nashriyoti, 1985.
10. Salom, Kelajak. Taşkent. G. Gulom Nashriyoti, 1986.
11. Navoiyning Nigohi Tushgan... (nashr va tadqiq). Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1987.
12. Ma’rifat Darg’alari. Taşkent. O’qituvchi, 1990.
13. Revolyutsiya i. Literature. Taşkent. Fan Nashriyoti, 1991.
14. Ismoilbek Gasprali. Taşkent. G. Gulom Nashriyoti, 1992.
15. Mustafo Cho’qay o’g’li. Istiqlol Jallodlari (nashr va kirish so’z) Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1992.
16. Abdulla Avloniy. O’son, millat (so’z boshi, lug’at, nashr va tadqiq). Taşkent. Sharq, 1993.
17. Tavallo. Ravnaqul islom (matn, so’z boshi, lug’at). Taşkent. Fan, 1993.
- 18.. Maslakdoshlar (Behbudiy, Azhziy, Fitrat). Taşkent. Sharq, 1994.
19. Vatan va Millat Muqaddasdir. Taşkent. O’qituvchi, 1996.
20. Behbudiy. Tanlangan Asarlar (matn, so’z boshi, lug’at). Taşkent. Ma’naviyat Nashriyoti, 1997.
21. Abdulla Avloniy. Tanlangan Asarlar (2 cilt matn, so’z boshi, lug’at). Taşkent. Ma’naviyat Nashriyoti, 1998.
22. Sidqiy Hondayliqiy. Tanlangan Asarlar (yeniden düzenlenmiş). Taşkent. Ma’naviyat, 1998.
23. Behbudiy. Tanlangan Asarlar (yeniden düzenlenmiş). Taşkent. Ma’naviyat Nashriyoti, 1998.
24. Ibrat Azhziy, So’fizoda. Tanlangan Asarlar (matn, so’zbashi, izoh). Taşkent. Ma’naviyat Nashriyoti, 1999.
25. Yusuf Saryomiy. Tanlangan Asarlar (matn, so’zbashi, izoh). Taşkent. Ma’naviyat Nashriyoti, 2002.
26. Milliy Uyg’onish: Jasorat, Ma’rifat, Fidoyilik. Taşkent. Ma’naviyat, 2002.

Yukarıdaki kitaplara konu olan isimlerin bir kısmı ilk defa Begali Bey’in kaleminden çıkmıştır. Ceditçilik ve Cedit edebiyatının genel özelliklerini ortaya koyması, Rusya ve Avrupa’daki yenilik hareketleri ile ceditlerin alakaları üzerine görüşler bildirmesi açısından bu kitaplar oldukça önemlidir. Yukarıdaki çalışmaların 1990 öncesine ait olanları dönemin sıkı sansürüne rağmen resmi tarih ve söylemenin dışına çıkabilmiş, metaforik bir anlatımla “dokunulamaz” veya “yaklaşılamaz” ya da “aşılabilir” muamelesi yapılan konulara dokunmuştur.

Kısıtlı belge ve materyallerden bilgi üretebilmiş, belirli bir ufka sahip Özbek edebiyatı üzerine yaptığı çalışmaları mesleki kaygılardan öte bir kültür meselesi olarak görmüş ve siğ ideolojik tercihlerden uzak nesnel bakış açısının hâkim olduğu çalışmalara imza atmıştır.

Kültürün bir stratejik obje olduğu, Özbek dili ve edebiyatı üzerine yapılacak çalışmaların dolayısıyla Türklük biliminin Türk milleti için bu konumda bulunduğu farkında bir hayat süren Begali Bey, bizdeki bazı bilim adamlarının aksine günlük hayatta ve akademik çalışmalarında hiç bir şekilde Rusçayı kullanmamasına rağmen Rus dilini çok iyi biliyordu. Rus Edebiyatı’nın önde gelen temsilcilerinden Gorki ve Belinki’nin iki eseri (V. G. Belinskiy, Lermontov She’rlari. Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1977. M. Gorkiy, Maqolalar. Taşkent. G. Gulam Nashriyoti, 1978.) Özbek Edebiyatına kazandırması bunun bir delilidir.

Kısıtlı imkanlar dâhilinde kendini yetiştiren Hoca lisans, yüksek lisans ve doktora seviyesinde Mümtaz Edebiyat, edebî alakalar, Cedit Edebiyatı üzerine dersler vererek yüzlerce öğrenci yetiştirmiş, bağımsızlık sonrası yeniden yapılanma sürecinde her alanda olduğu gibi ders kitaplarının da yeniden hazırlanması sürecinde de önemli katkılarda bulunmuştur. Begali Qosimov Özbek edebiyatını orta, lise ve üniversite düzeyindeki gençlere geçmiştenden farklı olarak doğru ve tam bir şekilde öğretmek amacıyla şu kitapları hazırlamıştır:

1. O’zbek Adabiyoti. TOSHDU Nashriyoti, 1985.
2. Gulom Karimovning Hayoti va İjodiy Faoliyati Bo’yicha Filolog Studentlar Uchun Bibliografik Ko’rsatma. Taşkent. 1989.
3. Navoiyhonlik. Taşkent. O’qituvchi, 1993.
4. O’zbek Adabiyoti (10. sınıflar için). Taşkent. O’qituvchi, 1993.
5. Abdulla Avloniy-O’zbek Pedagogikasi Tarihi. Taşkent. O’qituvchi, 1997.
6. O’zbek Adabiyoti (10. sınıflar için). Taşkent. O’qituvchi, 1999.

7. Adabiyot (7. sinflar için). Taşkent. Yozuvchi, 2001.
8. Adabiyot (9. sinflar için). Taşkent. Ma'naviyat, 2002.
9. O'qituvchi Kitobi. (9. sinflar için). Taşkent. Ma'naviyat, 2002.

Bilgisine güvenen, çok çalışan, sakin, alçak gönüllü, az ama öz konuşan bir yaratılışa sahip, gururlu ve kendinden emin duruşu ile politik çevrelerde olmasa bile akademik çevrelerde gerek yurt içi gerekse yurt dışında saygınlığı olan, örnek teşkil edecek bir bilim adamı olarak "Yassaviy Nomidagi Xalqaro Mukofot" sahibi ve "O'zbekiston Respublikasi Fan Arbobi" unvanına layık görülmüştür.

62 yıllık ömrüne kırkın üzerinde kitap ve üç yüzden fazla makale ile Cedit edebiyatı ve Ceditçiler üzerine çalışma yapan edebiyatçıların önde gelenlerinden biri olarak 25 Eylül 2004 tarihinde Taşkent'te hayata gözlerini kapamıştır.

Yaşayan Özbek kültürünün mahiyeti, ölçülemeyecek kadar değerlidir. Bu mahiyet içinde Begali Qosimov'un çok büyük bir payının olduğunu ve ona Özbek kültürünün dolayısıyla Türk kültürünün bu ölçülerde minnettar bulunduğunu belirtmek vicdani borcumuzdur.

Manba: [Uluslararası Strateji ve Güvenlik Araştırmalar Merkezi](#)

O'xshash maqolalar:

- [Xurshid Davron. Bu minorlar — bizning qaddimiz. She'rlar.](#)
- [Leonardo da Vinchi. Hikmatlar.](#)
- [Begali Qosimov. Quyosh borligiday oydin haqiqat.](#)
- [Tilanchi chol hikmatlari: Odamiylik sabog'i & Yaxshimi, yomonmi?](#)
- [Xurshid Davron. Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat.](#)
- [Abdulhamid Cho'lpon. Vayronalar orasidan \(Andijon — O'sh - Jalolobod\).](#)

Teglar: [Begali Qosimov](#), [jadidlar](#), [Xurshid Davron](#)

[Shukur Xolmirzayev. Yozuvchi kim?](#)

[Shukur Xolmirzayev. Hikoya haqida.](#)

Izoh qoldiring

Ism

E-mail (sir saqlanadi)

Sayt

• Sayt bo'limlari

- [Adib hayoti va ijodi](#)
 - [Adib haqida](#)
 - [Adib kitoblari](#)
 - [Hikoya, qissa, drama](#)
 - [Kundalik sahifalaridan](#)
 - [Maqola, esse, suhbat](#)
 - [She'r va doston](#)
 - [Tarjimalar](#)
- [Audio va video](#)

- [Davomli maktublar](#)
- [Hikmat va rivoyat](#)
- [Kutubxona](#)
 - [Alisher Navoiy hayoti va ijodi](#)
 - [Islom tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
 - [Jadidchilik tarixi va siymolari faoliyati](#)
 - [Jahon tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
 - [O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
 - [Ruscha matnlar \(Тексты на русском\)](#)
 - [Tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar](#)
 - [Tasavvuf tarixi va adabiyoti](#)
 - [Turkiy tarix, adabiyot va madaniyat](#)
 - [Yosh tarjimonga tavsiya](#)
- [Mening avlodim](#)
- [Xotira, yodnoma](#)
- [Yangiliklar](#)
 - [Muborak kun](#)
 - [Taqdimot](#)
 - [Tarixiy sana](#)

• Eng so'nggi

- [Fozil Yo'ldosh o'g'li. Jizzax qo'zg'oloni. Doston.](#)
- [Адиб Халид. Узбекистан: рождение нации.](#)
- [Gabriyel Garsia Marques: Odamlar, men buni yozmaganman.](#)
- [Ma'murjon Uzoqovga bag'ishlov.](#)
- [Viktor Alimasov. Beorom qalb qiynoqlari.](#)
- [Suyima G'anieva. E'tiqod va irfoniy qarashlar.](#)
- [Og'akeldi Allanazarov. Shavkatni eslab.](#)
- [O'g'lining qotilini o'limdan qutqargan ona.](#)
- [Маркес не писал известное «Прошальное письмо» & Псевдоцитаты Габриэля Гарсия Маркеса](#)
- [Габриэль Гарсия Маркес. Жить, чтобы рассказывать о жизни.](#)
- [Юрий Папоров. «Габриель Гарсия Маркес. Путь к славе»](#)
- [Ф. М. Достоевский. Что такое для нас Азия? & Достоевский и Ислам.](#)
- [Shuhrat Rizayev. Men tirikman to olamda so'zim bor.](#)
- [Воспоминания Саттар-хана, муфтия, казия и русского чиновника.](#)
- [Sa'dulla Siyoev. Oltin zanglamas...](#)
- [Abdulla Qodiriy. 20-yillar felyetonlari.](#)

• Bizni kuzatib boring



Yangiliklarimizga yoziling

E-mail:

[+ Добавить на Яндекс](#)

Do'stlarimiz

iHerb.com
Natural Products & More

Лучшие цены !

**Покупай без
Посредников !**

Доставка от 4 до 6\$

При первом заказе 5 \$

в подарок !

**Спортивное питание,
Косметика, Товары для
здоровья и многое
другое**

Код скидки: HTT268

iHerb.com

• Eng ko'p o'qilgan

[Lolaqizg'aldoq. Shavkat Rahmon xotirasiga. Muhammad Yusuf she'ri](#) : Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуфнинг "Лолақизг'...

[Muhammad Yusuf. Shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan hujjatli film](#) : "Муҳаммад Юсуф". Хужжатли фильм
Сценарий муаллифи: ...

[П. Алексеенков. Кокандская автономия](#) : П. Алексеенков. Кокандская автономия. Ташкент., Узгиз....

[Taniqli adib Zohir A'lam vafot etdi](#) : Бугун таниқли ёзувчи Зоҳир Аълам 71 ёшида вафот этди...

[Обладателем Гран-при II Международного конкурса вокалистов имени Магомаева стал бас-баритон](#)

[Женисбек Пиязов из Узбекистана](#) : Ўзбекистонлик қорақалпоқ йигити Женисбек Пиязов — гра...

[Malika Egamberdiyeva "Yoshlar" telekanalining "Oltin mikrofon" loyihasida](#) : "Ёшлар" телеканали орқали эфирга
узатилаётган "Олтин ...

[Sulaymon Rahmon. Tinch oqar daryo. Esse. Ikkinchi qism](#) : Асқад Мухторнинг сўзи ўткир, залварли, фикри теран,
с...

[«Oodiriy bog'i» \(videofilm\)](#) : Фильм ўзбек ёзувчиси Абдулла Қодирий яшаб ижод қилган...

[O'tkir Hoshimov. "Yarim asr daftari" kitobidan](#) : "Мовароуннахр" нашриёти халқимизнинг сеvimли адиби, ...

• Teglar

[Abdulhamid Cho'lpon](#) [Abdulla Oripov](#) [Abdulla Oodiriy](#) [Abdurauf Fitrat](#) [Ahmad A'zam](#) [Alisher Navoiy](#) [Amir Temur](#) [Asqad Muxtor](#) [Asqar Mahkam](#) [BBC Buxoro](#) [Chingiz Aytmatov](#) [Erkin A'zam](#) [Erkin Vohidov](#) [Eshqobil Shukur Faxriyov](#) [hikmatlar](#) [Ibrohim Haqqul](#) [islom Mahmudxoja](#) [Behbudiy Mavlono Jaloliddin Rumiy](#) [Mirzo Bobur](#) [Mirzo Ulug'bek](#) [Murod Muhammad Do'st](#) [musiq](#) [Nabijon Boqiy](#) [Naim Karimov](#) [Nazar Eshonqul o'zbek mumtoz she'riyati](#) [Odil Ikrom](#) [Odil Yoqubov](#) [Oybek](#) [Rauf Parfi](#) [rus bosqini](#) [Samarqand](#) [Shavkat Rahmon](#)

[Shukur Xolmirzayev tasavvuf](#) [Ulug'bek Hamdam](#) [Umid Bekmuhammad](#) [Usmon Azim](#) [xotira](#) [Xurshid Davron](#) [Xurshid Do'stimuhammad](#) [XX asr o'zbek she'riyati](#)

• Saytimiz arxivi

- [2014](#)
- [2013](#)
- [2012](#)
- [2011](#)
- [2010](#)

[Tepaga RSS](#) [Bosh sahifa](#)

Xurshid Davron (Khurshid Davron) kutubxonasi (c) 2007 - 2014

